TILNING MODAL–SEMANTIK TIZIMINING KOGNITIV PARADIGMASI

Alimova M.X.
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti professori
E-mail: mukharam.alimova@mail.ru
Oripova M.J.
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti dotsenti
E-mail:jurakulovna76@gmail.com
Karimova Sh.T.
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti dotsenti.
E-mail: karimova.sh.76@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning modal-semantik tizimi kognitiv paradigma doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqot modallikning inson tafakkuri, bilish jarayoni va konseptual tuzilmalardagi o'rnini aniqlashga qaratilgan. Modallik nafaqat grammatik kategoriya, balki inson ongining mantiqiy, semantik va madaniy in'ikosini ifodalovchi kognitiv mexanizm sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillari – konseptual metafora, freym semantikasi va muloqotdagi baholash mexanizmlari asosida modallikning til tizimidagi paradigmasi ochib beriladi.

Kalit so'z: Kognitiv paradigma, modallik, semantika, konseptual metafora, tafakkur, bilish jarayoni.

Аннотация. В статье рассматривается модально-семантическая система языка в рамках когнитивной парадигмы. Исследование направлено на выявление роли модальности в процессах человеческого мышления, познания и концептуализации мира.

Модальность трактуется не только как грамматическая категория, но и как когнитивный механизм, отражающий логико-семантическую и культурную интерпретацию реальности в сознании человека.

Анализ проводится на основе принципов когнитивной лингвистики, таких как концептуальная метафора, фреймовая семантика и оценочные механизмы в коммуникации.

Ключевые слова: Когнитивная парадигма, модальность, семантика, концептуальная метафора, мышление, познание.

Abstract. This article examines the modal-semantic system of language within the framework of the cognitive paradigm.The study aims to identify the role of modality in human cognition, conceptualization, and meaning-making processes. Modality is interpreted not merely as a grammatical category but as a cognitive mechanism that reflects the logical, semantic, and cultural representation of reality in human consciousness. The analysis is based on the core principles of cognitive

ISSN 3030-3907

linguistics, including conceptual metaphor theory, frame semantics, and evaluative mechanisms in communication.

Keywords. Cognitive paradigm, modality, semantics, conceptual metaphor, cognition, conceptualization.

Kirish.

Zamonaviy tilshunoslikda modallik tushunchasi grammatik kategoriya chegarasidan chiqib, kognitiv paradigmaning markaziy elementlaridan biriga aylangan. Til tizimida modallik inson tafakkurining, bilish jarayonining, va dunyoni konseptual idrok etish shaklining ifodasidir. Til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib beruvchi modallik vositalari, nafaqat ma’no ifodalovchi, balki dunyoni inson ongida qayta modellashtiruvchi mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv tilshunoslik modallikni shaxsning konseptual maydoni, baholash tizimi va tajriba modeli bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganadi. Mazkur maqolada modallikning semantik tabiati, uning kognitiv asoslari, hamda tafakkurdagi baholash va epistemik kategoriyalar bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinadi.

Tilning modal-semantik tizimini o‘rganish, shuningdek, inson tafakkurining universalligi va madaniy xususiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni ochib berishga xizmat qiladi. Shu boisdan modallikni faqat grammatik struktura emas, balki kognitiv paradigma doirasida qarash, uni inson tafakkuri va madaniy qadriyatlari kontekstida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy jamiyatning eng muhim xususiyatlaridan biri — bu barcha sohalarda, ayniqsa fan, texnologiya, ishlab chiqarish va axborot sohalarida kechayotgan globallashuv jarayonidir. Hozirgi taraqqiyot insoniyat hayotining barcha qatlamlarini shakllantirib, zamonaviy jamiyatning ko‘rinishini belgilab bermoqda. Globallashuv, o‘z navbatida, turli xalqlar va madaniyatlar orasida erkin muloqot olib borish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu boisdan xorijiy tillarni mukammal egallash, u orqali fikr almashish, g‘oya yetkazish va madaniy o‘zaro tushunishni ta’minlash bugungi kunda dolzarb ehtiyojga aylangan.

Rivojlangan davlatlarda til o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish, talabalarda mustaqil fikrlash, keng dunyoqarash va ta’limiy motivatsiyani shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tizimli olib borilmoqda. Tilni o‘rganishda grammatik va leksik birliklar tildagi olam manzarasini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Til o‘z egasining ongidagi voqelikni obyektivlashtirish shakli bo‘lib, inson tafakkuri va borliqni idrok etish jarayonining ajralmas qismidir. Shu bois, til o‘rganuvchilarda ehtiyoj, qiziqish va maqsadlarning shakllanishi ularning leksik materialni o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Mamlakatimizda ham chet tillarini o‘qitish jarayoni xalqaro malaka talablari asosida yo‘lga qo‘yilib, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yangi metodik yondashuvlar joriy etilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xalqaro ta’lim standartlarini joriy etish va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini baholash tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Natijada oliy ta’limda fanlararo integratsiya asosida til o‘qitish imkoniyatlari kengaydi.

Chet tillarini o‘rganishning ommalashuvi zamon talabi sifatida kun sayin ortib bormoqda. Bu esa o‘qitish tizimini zamonaviyroq usullar bilan takomillashtirish, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishni taqozo etadi.

Tilning modal-semantik tizimini globallashuv kontekstida kognitiv va modallik jihatdan o‘rganish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki globallashuv tillararo va madaniyatlararo o‘zaro ta’sirni kuchaytiradi. Bu esa har bir til jamoasida modallik ifodalarining qo‘llanilishi va anglanish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Natijada til birliklari global madaniy ta’sirlarni qabul qilish yoki ularga qarshi turish mexanizmlarini shakllantiradi.

Tilning modal-semantik tizimining kognitiv va modallik o‘lchovlarini o‘rganish dolzarbligi shundaki, biz tildagi modallik vositalari orqali aniqlik, zarurat yoki ehtimollik darajalarini ifodalaymiz. Global tizimlarning, masalan, yirik iqtisodlar yoki siyosiy tuzilmalar ta’siri insonlarning nutq uslubiga, so‘z tanlashiga va modallik ifodalariga o‘z izini qoldiradi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan ustun bo‘lgan madaniyatlarning tillari boshqa tillardagi modallik vositalarini o‘zgartirishga yoki ularga moslashishga majbur qilishi mumkin.

Shunday qilib, tilning modal-semantik tizimidagi o‘zaro ta’sirlarni o‘rganish nafaqat tildagi grammatik o‘zgarishlarni, balki inson tafakkuridagi o‘zgarishlarni ham chuqur tushunishga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatdagi global jarayonlar bilan bog‘liq nutq, fikrlash va muloqot shakllarining qanday evolyutsiyalanayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, madaniyatshunoslik va globallashuv tadqiqotlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, til va ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi chuqur o‘zaro aloqadorlikni yoritadi.

Adabiyotlar sharhi. Modallik masalasi qadimdan tilshunoslikda markaziy o‘rin tutib kelgan. 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu tushuncha kognitiv va pragmatik yondashuvlar bilan boyidi.

J. Lakoff, R. Langacker, Ch. Fillmore singari olimlar modallikni inson tafakkurining strukturaviy modeli sifatida ko‘rib chiqishgan. Ularning fikricha, til birliklari — bu insonning dunyo haqidagi bilimlarini konseptual tarzda tartibga

ISSN 3030-3907

soluvchi vositalardir. Pragmatik maktab vakillari (J. Searle, H. Grice) modallikni muloqotdagi maqsadga yo‘naltirilgan strategiya sifatida baholaganlar. Kulturologik qarashlarda (A. Wierzbicka, M. Halliday) modallik milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar in’ikosida ko‘rilgan, ekstralingvistik tadqiqotlarda esa intonatsiya imo-ishora va mimika modallikning ajralmas qismi sifatida baholangan.

Bugungi kunda modallikni faqat sintaktik yoki semantik toifa sifatida emas, balki kognitiv paradigma doirasida — inson tafakkuri, emotsional tajriba va madaniy kontekstni ifodalovchi konseptual mexanizm sifatida o‘rganish eng samarali yondashuvdir.

Ekstralingvistik yondashuv modallikni noverbal vositalar bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qiladi. Bu yo‘nalishda intonatsiya, pauza, imo-ishora, yuz ifodasi va kontekstual holatlar modallik ma’nosini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. E. Goffman, R. Jakobson, P. Ekman tadqiqotlarida modallik muloqotdagi hissiy signal sifatida o‘rganiladi. Masalan, bir xil gap ohangining o‘zgarishi so‘zlovchining shubha, ishonch yoki kinoyali munosabatini bildirishi mumkin. Shunday qilib, modallik faqat til tizimida emas, balki muloqotning paralingvistik qatlamida ham namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, modallikni o‘rganishda zamonaviy tilshunoslikda interdisiplinar yondashuv kuchaymoqda. Bu yondashuv tilshunoslik, psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va hatto neyrofiziologiya ma’lumotlarini birlashtirgan holda modallikni inson tafakkurining kompleks hodisasi sifatida tahlil qiladi. Masalan, zamonaviy kognitiv modellar modallikni ‘epistemik baholash’ va ‘sub’ektiv nuqtai nazar’ mexanizmlari orqali tushuntiradi. Shu bilan birga, global madaniy integratsiya natijasida tillararo modallik tizimlari o‘zaro ta’sirlashmoqda.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tilning modal-semantik tizimi murakkab, ko‘p qatlamli va inson tafakkurining kognitiv hamda ijtimoiy o‘lchovlarini aks ettiruvchi universal tuzilmadir. Mazkur tizimning o‘rganilishi nafaqat lingvistik strukturalarni, balki madaniy va psixologik idrokni ham chuqur tahlil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi interdisiplinar asosda shakllantirildi. Kognitiv tilshunoslikda R. Langackerning konseptual grammatikasi, Ch. Fillmorning freym semantikasi, J. Lakoffning kognitiv metafora nazariyasi tahlil asosiga olindi. Pragmatik yondashuvda J. Searle va H. Grice nazariyalariga tayanildi. Kulturologik nuqtai nazardan, A. Wierzbicka va M. Hallidayning madaniyatlararo semantika konsepsiyasi o‘rganildi. Ekstralingvistik yondashuvda intonatsiya, pauza va mimikaning modallik ma’nosiga ta’siri tahlil qilindi.

ISSN 3030-3907

Kognitiv yondashuv orqali modallik inson ongidagi baholash, ishonch, ehtimollik va majburiyat kabi psixologik holatlarning lingvistik ifodasi sifatida izohlanadi.

Tahlil va muhokama. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, modallik tizimi tildagi kognitiv, pragmatik, kulturologik va ekstralingvistik omillarni birlashtiruvchi murakkab semantik hodisadir.

Kognitiv jihatdan modallik inson tafakkuridagi baholash mexanizmini ifodalaydi. Inson biror voqeani nafaqat kuzatadi, balki uni baholaydi, taxmin qiladi, unga ishonch bildiradi yoki shubha qiladi. Shu jihatdan modallik inson ongidagi 'epistemik baho' sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi 'must', 'might', 'could', 'should' kabi birliklar inson tafakkuridagi zarurat, imkon va ehtimollik darajalarini grammatik vositalar orqali ifodalaydi. O‘zbek tilida esa bunday birliklar ko‘pincha fe’l shakllari yoki qo‘shimcha so‘zlar yordamida ifodalanadi ('kerak', 'mumkin', 'balki', 'shekilli' va boshqalar). Bu esa har bir tilning dunyoni idrok etish modelidagi farqlarni ko‘rsatadi.

Pragmatik tahlil modallikning muloqotdagi vazifasini ochib berdi. Nutqda modallik nafaqat ma’lumot uzatadi, balki so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatni ham belgilaydi. Masalan, ingliz tilida buyruq ('You must close the door') ko‘pincha qat’iy ohangda aytiladi, o‘zbek tilida esa odatda yumshatilgan, hurmat bildiruvchi shakl ('Iltimos, eshikni yoping') qo‘llaniladi. Bu esa tilning modallik tizimi ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan qanchalik chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Pragmatik tahlil shuni ko‘rsatdiki, modallik vositalari orqali so‘zlovchi o‘zining ijtimoiy pozitsiyasini bildiradi, tinglovchiga nisbatan hurmat, yaqinlik yoki rasmiylik darajasini ifodalaydi.

Kulturologik jihatdan modallik jamiyatdagi ijtimoiy me’yorlarni, axloqiy qadriyatlarni va milliy tafakkur uslublarini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tilida so‘zlovchi ko‘pincha yumshoqlik, samimiyat va ijtimoiy hurmatni ifodalovchi modallik vositalaridan foydalanadi. Bu madaniyatda muomala etikasi, kattalarga hurmat va jamoaviylik qadriyatlarining ustuvorligini ko‘rsatadi. Aksincha, ingliz tilidagi modallik tizimi individualizm, aniq mantiq va qat’iyat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, so‘zlovchining shaxsiy nuqtai nazarini ochiq ifodalashga imkon beradi.

Ekstralingvistik tahlil esa modallikning noverbal ifoda shakllarini ochib berdi. Tadqiqotda aniqlanishicha, intonatsiya, pauza, mimika va imo-ishoralar modallikning semantik yukini to‘ldiruvchi vosita sifatida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, 'Ha, yaxshi' degan ibora tinch ohangda aytilsa tasdiqni bildiradi, ammo kinoyali ohangda aytilganda butunlay qarama-qarshi ma’no kasb etadi. Demak, modallik faqat grammatik vositalar bilan emas, balki nutqning hissiy-psixologik qatlamlari bilan ham bog‘liq.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot davomida olingan natijalar tildagi modallik tizimining murakkab, ko‘p qirrali va kontekstga bog‘liq hodisa ekanini ko‘rsatdi. Modallikning kognitiv, pragmatik, kulturologik va ekstralingvistik o‘lchovlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ular inson tafakkurining, madaniyatning va muloqot jarayonining turli qatlamlarini yoritadi.

Kognitiv va pragmatik omillar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir modallikning kommunikativ samaradorligini belgilaydi. Inson tafakkurida modallik orqali shakllangan baho nutqda pragmatik strategiya sifatida ifodalanadi. Shu bois modallikni anglashda kontekst, ijtimoiy rol va madaniy qadriyatlar bir butun tizim sifatida qaralishi zarur. Shuningdek, tahlil shuni ko‘rsatdiki, global madaniy ta’sirlar modallik tizimiga ham sezilarli darajada ta’sir qilmoqda. Xalqaro muloqotning kuchayishi natijasida tillar o‘rtasida modallikning ayrim shakllari almashinmoqda yoki semantik jihatdan yaqinlashmoqda. Bu hodisa ayniqsa yoshlar nutqida, ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, inglizcha 'maybe', 'sure', 'of course' kabi birliklar o‘zbek nutqida bevosita o‘zlashtirilgan yoki mos shakllarda ishlatilmoqda. Bu esa tillararo modallik tizimining o‘zaro ta’sir mexanizmini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, modallik tizimi — bu inson tafakkuri, madaniy qadriyatlar va kommunikativ tajribaning kesishgan nuqtasidir. Tilning modal-semantik tizimi kognitiv, pragmatik, kulturologik va ekstralingvistik o‘lchovlarda o‘rganilganda, u tildagi semantik dinamikani, ijtimoiy o‘zgarishlarni va madaniy evolyutsiyani chuqur yoritishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, modallik tizimi — bu inson tafakkuri, madaniy qadriyatlar va kommunikativ tajribaning kesishgan nuqtasidir. Tilning modal-semantik tizimi kognitiv, pragmatik, kulturologik va ekstralingvistik o‘lchovlarda o‘rganilganda, u tildagi semantik dinamikani, ijtimoiy o‘zgarishlarni va madaniy evolyutsiyani chuqur yoritishga imkon beradi. Modallik nafaqat grammatik tuzilma, balki inson tafakkurining, madaniy qadriyatlarining va ijtimoiy tajribasining in’ikosidir. Ushbu tizimni o‘rganish lingvistikani interdisiplinar rivojlantirish, tarjima nazariyasini boyitish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimova M.X., Rasulov Z.I. Comparative Typology of the English and Uzbek languages. Bukhara, 2022
2. Fillmore, C. J. (1982). Frame Semantics. Seoul: Hanshin.
3. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts.
4. Halliday, M. A. K. (1994). An Introduction to Functional Grammar. London: Edward Arnold.

ISSN 3030-3907

5. Lakoff, G. (1987). Women, Fire, and Dangerous Things. Chicago: University of Chicago Press.
6. Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Stanford University Press.
7. Wierzbicka, A. (1996). Semantics: Primes and Universals. Oxford University Press.
8. Humboldt, W. von. (1999). On Language. Cambridge University Press.
9. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
10. Yuldasheva, D. (2018). Kognitiv tilshunoslik va til tafakkur munosabatlari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti.
11. Saidova, M. (2020). Pragmatik semantika asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.

ISSN 3030-3907